

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA FANLARNI O‘QITISH MULTIMEDIA VOSITALARINI YARATISH VA FOYDALANISH

Majidov Shodi Saloxiddin o’g’li
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim - tarbiya tizimida ham zamonoviy o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilayotgan davrda, o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog-larni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydala-nishlari uchun, eng avvalo ularning o‘zlarini bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish hamda mustahkamlash kerak bo‘ladi, ya’ni bunda boshlang‘ich ta’lim tizimini texnik jihatdan ta’minalash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to‘la yaratib berish orqaligini samarali natijaga erishish mumkin. Ayniksa, o‘quvchilar zamon talablari asosida bilim va malakaga ega bo‘lishlarida axborot texnologiyalarining zamonoviy vositalalaridan, ayniqsa, multimediali o‘quv kurslaridan elektron ko‘rinishda foydalanishlari yanada yuqori samara bermoqda.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida asosiy e’tibor ta’lim sifatiga qaratilishi zarur. Buni amalga oshirishning asosiy usullaridan biri o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini, ya’ni multimediyali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini ta’minalash, o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalgan etishdan iborat bo‘ladi.

Multimedia texnologiyalari asosida o‘qitish jarayonini tashkillashtirishda mashg‘ulot o‘tishning turli uslublari va texnologiyalaridan foydalanish lozim. Buning uchun o‘quvchilarning o‘quv auditoriyalarida, kompyuter sinflarida, o‘qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy kabinetda, kutubxonalarda amaliy shug‘ullanishlarini tashkillashtirish kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yaratilgan barcha multimedia o‘quv kurslari amaliy tadbiqdan va tajribadan o‘tgan bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari fanlari bo‘yicha multimedia o‘quv kurslarining xususiyatlari bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o‘quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko‘rinishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o‘quv jarayonida o‘quvchilarni professional bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Bunday multimedia o‘quv kurslari matematik formulalar va teoremlar isboti tizimidan, mustaqil o‘rganish uchun murakkab nazariy materiallardan tuzilgan bo‘ladi. Bu esa interfaol ma’ruzaviy multimedia kurslarini va namoyish materiallarini to‘ldiruvchi, traditsion usulda chop etishga asoslangan elektron o‘quv qo‘llanmalari yaratish lozimligini ko‘rsatadi.

Interfaol multimediali ma’ruzalar turli xil axborotlarni – matn, statik va dinamik grafika, video va audio yozuvlarni integratsiyalash imkonini beradi. O‘quvchini o‘quv jarayonida faolroq va diqqatliroq bo‘lishga o‘rgatadi, chunki axborotlar ma’lum bir harakatli amallarga mos javoblar asosida bayon qilinadi. Multimedia o‘quv kurslaridan

foydalanish ma'ruzaviy namoyishlarning sifatli video yozuvlarini, kompyuterli laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, fizik hodisa va jarayonlarning imitatsion animatsiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu esa ro'y berayotgan jarayonlarni ta'sirchanligini va haqqoniyligini ko'rsata oladi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari fanlari bo'yicha multimedia kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash ob'ektlariga ta'sir qilishning umumiy metodlari muhim o'rnlardan birini egallaydi.

Multimedia o'quv kurslari avvalgi traditsion o'quv qo'llanmalardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Shu jumladan, o'quv materiallarini o'quvchilarga tavsiya etish multimediali: grafika, animatsiya, video, ovozli va tovushli harakatlar, real voqeа va hodisalarni modellashtirish kabi boshqa ko'plab elementlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarni o'rganayot-gan jarayonlari bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishda va oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari fanlar bo'yicha multimedia o'quv kurslarining asosisiy xususiyatlaridan biri, shu fanni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi.

Multimedia o'quv kurslarida o'quv materiallarini to'ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko'rgazmali vositalari alohida ko'rgazmali jadvallar, grafik sxemalar , rasmlar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar, videofilmlar va boshqa shunga o'xhash ko'rgazmali nazariy materiallar orqali tasvirlanilishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari fanlarini multimediali o'quv kurslari asosida o'qitishda video-ma'ruzalar, animatsion modellar, kompyuterli laboratoriya amaliyotlaridan foydalanish o'z samarasini beradi, chunki ular natural ob'ektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Bu esa quyidagi afzallikkarni keltirib chiqaradi:

- o'quvchilar bevosita ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni dasturiy vositalar yordamida kuzatadi, ya'ni vizual ko'rish amalga oshiriladi;
- o'quv materiallari chuqurroq va mukammalroq o'zlashtiriladi;
- vaqt tejaladi;
- olingan bilimlar amalda qo'llaniladi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.
- mashg'ulotlar chiroqli o'quv ko'rmazmalari asosida tashkillashtiriladi hamda o'quvchilar bilan interfaol muloqot qilish imkonini paydo bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari fanlarini kompyuter texnologiyalari va multimedia o'quv kurslari asosida o'qitishning asosiy o'quv-uslubiy va dasturiy ta'minoti - gipermatn, video va audio-ilovalar, animatsiyalar, katta sondagi namoyish materiallaridan foydalaniladigan multimediali o'quv qo'llanmalari hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari fanlari bo'yicha multimediali o'quv kurslari turli tabaqali va iqidorli o'quvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Bu esa ularning tuzilishining ko'p darajali va tarmoqli- modulli xarakterga ega ekanligi bilan aniqlanadi.

Multimedia o‘quv kurslarini yaratishda va ulardan foydalanish lokal kompyuter va Internet tarmog‘i keng imkoniyatlarni ochib beradi. Multimediali o‘quv kurslarini butun dune kompyuter tarmog‘iga joylashtirili-shi, ulardan o‘quv jarayoni foydalanishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojat qilish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o‘rga-nish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, multimedia o‘quv kurslarini yaratishda eng avvalo turli dasturiy vositalar bilan yaratiladigan interfaol parametrlarga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Multimedia o‘quv kurslarini tayyorlashda esa turli zamonaviy maxsus dasturiy vositalar, masalan, Adobe Photoshop – rastrli tasvirlarni tayyorlashda, CorelDraw - grafik va rasmlarni tayyorlashda, SoundForge - ovoz va tovushlarni qayta ishslash, Adobe Premier – video tasvirlarni qayta ishslash, Macromedia Flash MX - animationsion roliklar yaratishda, Macromedia Authorware – barcha komponentalarni bir butun qilib birlashtirish va uni bajariladigan exe-fayl shakliga keltirishda ishlatiladi.

Bu esa boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari fanlarni ko‘rgazmali qurollar bilan ta’minlash muammosini ma’lum bir holda multimedia orqali hal qilish imkonini yaratadi.